

## **XIX - XX ASRLARDA O‘RTA OSIYO XALQLARINING MA‘NAVIY HAYOTIDA AYOL ILOHALAR**

**M. F. Inomova, JDPI I bosqich magistranti**

**Ilmiy rahbar: F.Toshboyev tarix va uni o‘qitish metodikasi kafedrasi mudiri, dotsent**

**Annotatsiya:** Muallif ushbu maqolasida arxeologik, yozma va etnografik manbalarga tayanib, XIX - XX asrlarda O‘rta Osiyo xalqlarining ma‘naviy hayotida katta o‘rin tutgan ayol ilohalar haqida ma‘lumot bergan. Bunda, XIX asr o‘rtalarida ikki ayol timsoli: ijobiy xususiyatga ega – sari ena va yomonliklar keltiruvchi – alvasti (jin) tushunchalari islom dinigacha bo‘lgan Umay ona timsolini ifodalaganligini asoslashga harakat qilgan.

**Kalit so‘zlar:** Umay ona, Kerder shaharchasi, turk ayollari, shaman, alvasti, jinlar, sariq ena, sariq parilar, farishta.

**Abstract:** In this article, the author, based on archeological, written and ethnographic sources, provides information about female goddesses who played an important role in the spiritual life of the peoples of Central Asia in the XIX - XX centuries. In the mid-nineteenth century, Umayyad tried to justify the use of the pre-Islamic Umayyad image of two women: a positive mother and a evil one.

**Keywords:** Mother Umay, Kerder town, Turkish women, shaman, demon, demons, yellow mother, yellow fairies, angel.

Arxeologik, yozma va etnografik manbalar islomgacha bo‘lgan davrda o‘zbek xalqi ajdodlarida ayollarga alohida hurmat ko‘rsatilganligi, ularning nafaqat oilada, balki jamiyatda ham o‘z nufuzi va o‘rni bo‘lganligi haqida ma‘lumot beradi. Bu fikrni arxeologik materiallar ham tasdiqlaydi.

O‘rta Osiyo ko‘chmanchilarining siyosiy hayotida ayollardan chiqqan hukmdorlarning ko‘p bo‘lganligi (massaget, sovramat, mo‘g‘ul va turklar) to‘g‘risidagi ma‘lumotlar jamiyatda ular yuqori mavqega ega bo‘lganligini ko‘rsatadi. Abulg‘ozi Bahodirxon o‘g‘uzlar mamlakatida hukmdorlik qilgan yetti nafar ayollarni

sanab o'tadi<sup>1</sup>. Orol bo'y va Xorazmning shimolidan Vizantiya chegaralarigacha bo'lgan turk qabilalarini XI asrda ayollar boshqargan.

Keltirilgan ma'lumotlar, Ustrushona chorvadorlari jamiyatida ayollarga past nazar bilan qarash borligini inkor etadi. Chorvador jamoalarda ayollar ozod va mustaqil bo'lganlar. Erning rayiga qarab mehmonlarni kutib olganlar, o'z fikrlarini aytgan. Islomgacha bo'lgan diniy marosimlar (shamanlar) va folbinlik ham ular zimmasida bo'lganligi ushbu fikrlarni yana bir bor tasdiqlaydi. Aytish joizki, chorvador ko'chmanchilar dunyosida ayollar huquqining chegaralanishi mo'g'ul bosqinidan keyin ilm-fan va madaniyatdagi tanazzul va diniy mutaassiblik natijasida sodir bo'lgan.

Ustrushona mozorqo'rg'onlarida uchraydigan oshiq, kamon o'qlari, urchuq kabi ashyolar, shuningdek xalq orasida saqlanib qolgan turli xil rasm rusumlar, marosimlar va ayollar timsolida ifodalangan ayol xomiy (pari va farishta) tushunchalari yurtimizda Umay ona to'g'risidagi qarashlar ham keng tarqalganligini ko'rsatadi.

Umay onani turlicha talqin etishsa ham u asosan ayol qiyofasida ifodalangan va bu iloha timsolini aks ettiruvchi haykalchalarga ham sig'inilgan. 1997 yil Nukus yaqinidagi Kerder shaharchasidan ayolning loydan yasalgan tasviri topib o'rganilgan<sup>2</sup>. Bu haykalchanning bo'yi 9 sm, eni 4,5 sm o'lchamida. Kulrang loydan tayyorlanib qora angob bilan bo'yalgan va o'rtacha pishirilgan. Uning yuzi uzunchoq, qosh va burni "T" shaklida ifodalangan, ko'zi chuqurcha ko'rinishida bo'lib, qorachig'i bilinmaydi. Labsiz ochiq og'zi uncha chuqur bo'lmagan gorizantal o'yiqcha shaklida yasalgan. Boshi, yo'g'on va uzun bo'yni ustiga joylashtirilgan. Bo'ynida taroq yoki zanjirning bo'rtma rel'efli tasviri ifodalangan. Sochi tekis tarab orqaga qayrilgan<sup>3</sup>. Bu mabud tasviri xorazmdagi Ardvisura – Anaxita ilohasiga o'xshab ketadi.

1972 yil Qo'rg'oncha shaharchasi (Taxtako'pir shahridan 18 km sharqda)da ham mil.avv.VII-VIII arlarga oid haykalcha topilgan. U gildan yasalib, o'tirgan ayol

---

<sup>1</sup> Абулғози Баҳодирхон. Шажарайи тарокима. – Тошкент: Чўлпон, 1995, – Б. 48.

<sup>2</sup> Мамбегуллаев М. Статуэтка богини Умай из Кердера // ИМКУ № 31. Т., 1999. – С. 207-211.

<sup>3</sup> Мамбегуллаев М. Статуэтка богини Умай из Кердера... – С. 207.

ko‘rinishida qimmatbaho kiyim va bezaklarda, boshiga shlemga o‘xshash tepa qismi uch qirrali shox ko‘rinishidagi bosh kiyim kiygan holda tasvirlangan. V.N. Yagodinning fikricha, Qo‘rg‘oncha yodgorligida tasvirlangan ayol haykalchasi, Umay ilohasining tasviri bo‘lgan<sup>4</sup>. Bu bosh kiyimi qadimgi turk ayollari aholisi orasida (masalan, shamanni) boshqalardan ajralib turuvchi va ma‘lum bir tabaqani ifodalovchi ramziy belgi bo‘lgan. Bu haykalchadagi tasvir qozoqlardagi baxshi, tuvaliklardagi shamanga o‘xshash ko‘rinishda bo‘lib, o‘tirgan holati esa qandaydir marosimni ijro etayotganligidan darak beradi.

Sharqiy Oltoydagi Chulishman daryosi quyi oqimidagi Kuydirgi darasida 1924-1925 yillarda qoyatoshga o‘yib ishlangan tasvirlar o‘rganilgan<sup>5</sup>. Undagi tasvirlar xuddi Qo‘rg‘onchdagi ayol haykalchasiga o‘xshash ko‘rinishga ega. L.R.Kizlasovni ta‘kidlashicha, Kuydirgi darasidagi toshga o‘yib ishlangan, ayol kishining tizzalab o‘tirgan holatdagi ko‘rinishida shamanlarning bolani dafn etish marosimi aks etgan. Ulug‘vor ayolning boshidagi uch shoxli tiarasi esa, turklar uchun umumiy bo‘lgan hosildorlik, uy o‘chog‘i va bolalar xomiysi bo‘lgan Umay ilohasini ifodalagan<sup>6</sup>. Uch shoxli bosh kiyimi iloh va baxshi (jres)larning o‘zgarmas timsoli bo‘lgan.

S.M. Abramzonning yozishicha, homilador ayol Umay onaga bola tug‘ilishidan oldin iltijo qilib, bolani hayoti mobaynida barcha yovuzlik va yomon xodisalardan saqlashini so‘ragan. Agarda bola betob bo‘lib qolsa, urug‘dosh ayol (kampir)lar yig‘ilib, Umay onani chaqirganlar va bola bilan xayrlashib, uni olisroqqa qo‘yib, “Umay enaga topshirdim” deb aytgan<sup>7</sup>. Bolani oilasidagilar xursand deb hisoblashsa, bu Umayning karomati deb bilganlar. Kechasi Umayning yosh bola yuzini yuvib qo‘yishiga ishonganlar. Bu aholi orasida hozir ham ko‘p uchraydigan yosh bolaning yuzini “farishtalar yuvgan” atamasiga mos keladi.

Keyinchalik islom dini an‘analari qanchalik ommalashmasin juda qadimdan (matriarxat davridan) xalqimiz orasida mavjud bo‘lgan shamaniylik e‘tiqodi, ko‘k tangri, Umay ona e‘tiqodi kabi tasavvurlar unutilmagan. Aksincha, Umay e‘tiqodi

---

<sup>4</sup> Ягодин В.Н. Кердерская Умай //Вестник Каракалпакского отделения АНР Уз. Нукус, 1999. № 2. С.89. рис. 1.

<sup>5</sup> Гаврилова А.А. Могильник Кудыргы как источник по истории Алтайских племен. М.–Л. 1965. – С. 19.

<sup>6</sup> Кызласов Л.Р. История шаманских верования На Алтая // КСИИМК № 29. М., 1949. – С.50.

<sup>7</sup> Абрамзон С.М. Рождение и детство Киргизского ребенка // МАЭ. Е-12 М., 1949. – С. 82.

turk xalqlarining bola tarbiyalash tajribalariga diniy tushunchalar tarzida aralashib ketgan. Keyinchalik, bu tushunchani mohiyati biroz o'zgargan.

XIX asr o'rtalarida janubiy Orol bo'ylari aholisi orasida ikki ayol timsoli: ijobiy xususiyatga ega – sari ena va yomonliklar keltiruvchi – alvasti (jin) tushunchalari paydo bo'lgan<sup>8</sup>. Alvasti – jinlar, Sariq ena esa (sariq parilar) – farishta timsolida ifodalangan. Aholining tasavvuriga ko'ra Sariq ena homilador ayolga xomiylik qilgan, o'zining uzun sochini tutib unga tug'ishda yordamlashgan va tug'ish chog'ida ximoya qilgan. Alvasti esa, aksincha tug'ayotgan ayolga ziyon keltirgan. Shuning uchun tuqqan ayolni yolg'iz qo'yishmagan. Tashqariga chiqsa yaqinlaridan kimdir hamrohlikda chiqqan, boshqasi esa alvasti kelib yotog'iga yashirinib olmasligi uchun uning joyida yotib qo'rib turgan. Albasta obrazi qadim zamonlarga borib taqaladi va ko'plab xalqlarning mifologiyasida o'xshashlari bor. Qozoqlar Albastini chiroyli ayol deb bilishadi. Odatda u uzun sochlari bo'shashgan holda o'tiradi va agar siz unga yaqinlashsangiz, u sizni aqldan ozdirishi mumkin. U tashlandiq to'xtash joylarida, axlatda kul ichida yashaydi. U фақатгина gunohsiz, пок ва эътиқодли кишидан qo'rqadi va undan qochadi degan qarash b'ulgan. K'upincha alvasti bolani emizib qo'yadi va bunday holatda bola tezda vafot etadi yoki og'ir dardga chalinadi, degan tushunchalar mavjud bo'lgan<sup>9</sup>.

S. M Andreev Albasti jinining tug'ilgan joyi aynan Markaziy Osiyo ekanligi haqida ma'lumot beradi. Albastini, odatda, uzun sochli, uzun ko'krakli, xunuk ayol qiyofasida tasavvur qilingan. Albasti hayvonlarga va jonsiz narsalarga aylanishi mumkin degan fikrlar bo'lgan. Qirg'izlar va qozoqlar qora (qora), eng zararli va sariq (sariq) albastini ajratib ko'rsatdilar<sup>10</sup>. Sehrli kitob, taroq, tanga albastining odatiy quroli hisoblangan. Qozoq afsonalarida albasti daryolar yoki boshqa suv manbalari yaqinida yashaydi va odatda qirg'oqdagi odamlarga sochlarini tarab ko'rinadi, deb qaralgan. Qirg'iz va qozoq afsonalarida Albastiy to'lg'oq tutgan ayolning o'pkasini (jigar, yurak) o'g'irlab ketadi va ularni suvga solishi bilan to'lg'oq tutgan ayol o'ladi deyilgan.

---

<sup>8</sup> Мамбетуллаев М. Статуэтка богини Умай из Кердера... – С. 210.

<sup>9</sup> Мамбетуллаев М. Статуэтка богини Умай из Кердера... – С. 210.

<sup>10</sup> Андреев М.С. Таджики долины Хуф. Сталинобад: Изд-во АН Таджикской ССР, 1953. Вып. 1–2. С. 593-595.

Homilador ayol muammoga duch kelmaslik uchun suvga bormasligi kerak degan fikr bor. Ammo, agar Albastaning sochiga egalik qilsangiz, uni bo'ysundirish mumkin, deb ishoniladi. Albasti o'z aybi bilan kasallangan odamlarni davolashga yordam berib, o'z egasini boyitishga hissa qo'shadi.

Boshqa ma'lumotlarga ko'ra, Albasti sariq (sariq) qiz, xunuk ayol, o'g'il yoki qiz, tulki, echki, it ko'rinishida paydo bo'lishi mumkin. Shu bilan birga, V.N.Basilov Albasti dastlab yaxshi ma'buda, tug'ilish homiysi, uy, shuningdek yovvoyi hayvonlar va ovchilik homiysi bo'lgan, degan fikrni ilgari surgan diniy ta'limotlar, xususan islomning tarqalishi bilan bu rolga tushib qolgan. pastki yovuz ruhlardan biri timsoliga aylanganligini ta'kidlaydi<sup>11</sup>.

Shunday qilib, ma'naviy va afsonaviy ilohlarni o'rganish bizga ajdodlarimiz erishgan yutuqlarni qayta baholashga, madaniyatlararo muloqotning o'zaro ta'sir mexanizmini tushunishga imkon beradi. Ayollarning ma'naviy semantikasi turli xil ilohiy va mifologik tasvirlar panteoni bilan ifodalangan bo'lib, Markaziy Osiyo xalqlarining ma'naviy madaniyatini rivojlantirishda, xususan, islom dini bilan sinxronlashib, ulug'vor obrazlarning paydo bo'lishiga katta hissa qo'shdi.

---

<sup>11</sup> Басилов В.Н. Культ святых в исламе. М., 1970.